

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan
2023-yilda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida
MA'LUMOT**

I. Amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalar

a). Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan ishlar

Oliy ta'lim muassasalari soni 199 tadan 213 taga yetdi, ya'ni 14 taga ko'paydi. Davlat oliy ta'lim muassasalari **114 tadan 116 taga yetdi.**

3 ta nodavlat oliy ta'lim muassasasi tashkil etildi.

193 mingdan (shundan **34 930 tasi davlat granti** asosida) ortiq abituriyentlar talabalikka tavsiya etildi.

Talabalar soni **1 mln. 300 ming** nafardan oshdi. Yoshlarni oliy ta'lim bilan **qamrab olish** darajasi **38 foizdan 42 foizga** oshirildi.

663 nafar talabalarning o'quv jarayoni **akademik mobillik** asosida amalga oshirildi.

Ma'lumot uchun: 226 nafar talaba xorijda, 273 nafar xorijiy talabalar respublikamizda akademik mobillik asosida tahsil oldi.

Kirish imtihonida eng yuqori ball to'plagan **25 nafar talaba Prezident granti** sohibi bo'ldi.

695 nafar talaba O'zbekiston Respublikasi **Prezidenti va nomli davlat stipendiyalar sovrindori** bo'ldi.

Magistratura bosqichi talabalaridan **18 nafari** Prezident davlat stipendiyasi **sovrindori** bo'ldi.

26 ta Muvofiqlashtiruvchi soha kengashlari faoliyati yo'lga qo'yilib, jami **1138 ta malaka talablari** ishlab chiqildi.

Pedagogik kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlari «4+2» tartibda tashkil etildi.

12 nomda (1 500 nusxada) 967 mln so'mlik o'quv adabiyotlari brayl yozuvida chop etildi va Axborot resurs markazlariga yetkazildi.

QS "Fan sohalari reytingi" da 2 ta oliygoh 4 ta fan sohalari bo'yicha "TOP-500", "QS Osiyo universitetlari reytingi 2024" ro'yxatida 14 ta oliygoh "TOP-1 000", "QS Sustainability Rankings – 2024" reytingida 3 ta oliygoh "TOP-1 000" universitetlar ro'yxatiga kiritildi.

“Scopus” va “Web of Science” bazalar jurnallarida maqolalar soni **3 574 taga**, “Xirsh” indeksi besh va undan yuqori boʻlgan professor-oʻqituvchilar soni **417 nafarga** yetkazildi.

3 550 nafar professor-oʻqituvchilar **xorijda** malaka oshirishgan boʻlsa, **1 800 nafar xorijiy** professor-oʻqituvchilar oʻquv jarayonlariga jalb etildi. **11 900 nafar** rahbar va pedagog xodimlar mamlakatimizda malaka oshirdi.

10 ta xalqaro darajadagi tadbir oʻtkazildi.

30 dan ortiq xorijiy xizmat safarlari davomida **10dan** ortiq loyiha hujjatlari imzolandi.

150 dan ortiq rasmiy uchrashuvlar tashkil qilindi.

10 dan ortiq xalqaro darajadagi hujjatlar imzolandi.

6 ta oʻquv jarayonlari bilan bogʻliq boʻlgan axborot tizimlari **takomillashtirildi**.

Oʻrta maxsus (akademik litsey) taʼlim muassasalarida (**emis.edu.uz**) taʼlim jarayonlarini boshqarish axborot tizim joriy etildi;

Oliygothlararo **yagona elektron kutubxona** platformasi yaratilib, **324 mingdan** ortiq elektron resurslar joylashtirildi.

mavjud boʻsh ish oʻrinlari uchun onlayn hujjat topshirish platformasi (**vacancy.edu.uz**) ishga tushirildi.

Oliy, oʻrta maxsus va professional taʼlim muassasalarining **diplom maʼlumotlari bazasi** (**diplom.edu.uz**) shakllantirilib, 1991-2020 yillar davomida berilgan diplom maʼlumotlarining **84 foizi (1,25 mln.)** raqamlashtirildi.

Toʻlov-shartnoma va talabalar reyting daftarchalarining raqamlashtirilishi natijasida **3,34 mlrd. soʻm** miqdordagi mablagʻ **iqtisod qilindi**.

Axborot tizimlari **Raqamli hukumat tizimlariga integratsiya** qilinib, maʼlumotlardan hozirda **22 ta** vazirlik va idoralar foydalanmoqda.

Sohada koʻrsatilayotgan **davlat xizmatlarini** elektron shaklga oʻtkazish orqali Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida vazirlik va tizimidagi tashkilotlarning **22 ta** davlat xizmatlari (2023 yilning oʻzida **9 ta**) ishga tushirildi.

Vazirlik **Raqamli rivojlanish** boʻyicha davlat organlari orasida **4-oʻrinni**, vazirliklar orasida **1-oʻrinni** egalladi.

33,2 mln.dollar xorijiy investitsiya mablagʻlari oʻzlashtirildi.

Ma'lumot uchun: Xalqaro moliya instituti mablag'lari hisobidan **19,1 mln.dollar**, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya mablag'lari hisobidan **33,2 mln.dollar**.

52,9 MVt (118 foiz) quyosh panellari o'rnatildi.

3 005,9 ming dona manzarali, mevali daraxt hamda buta ko'chatlarini ekish ishlari amalga oshirildi.

Magistratura bosqichida tahsil olayotgan xotin-qizlarning **122,6 mlrd so'mlik** to'lov-kontrakt mablag'lari Davlat budjeti hisobidan to'lab berildi.

davlat ta'minotidagi yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan **445 nafar** talabalarga ularning ijtimoiy ta'minoti uchun **6,0 mlrd so'm**, **875 nafar** yetim bolalarga o'quv, ilmiy va badiiy adabiyotlar xarid qilish uchun **1,44 mlrd. so'm** mablag' Davlat budjeti hisobidan to'lab berildi.

97 180 nafardan ziyod talabalarga Davlat budjeti hisobidan ijara to'lovlari uchun jami **187,2 mlrd so'm** mablag' ajratildi.

Tadbirkorlik faoliyati, qo'shimcha ta'lim va servis xizmatlarini ko'rsatish hisobidan – **120 mlrd so'm** mablag' ishlab topildi.

5 637 birlik yangi ish o'rinlari yaratildi.

Akademik litsey bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish ko'rsatkichi **90 foizga** yetkazildi.

b). Professiona ta'lim tizimida amalga oshirilgan ishlar

Professional ta'limga **234 ta** kasb bo'yicha **179,4 ming nafar** o'quvchilar qabul qilindi.

Texnikumlarda **grant o'rinlar** soni **7 832 taga** oshirildi (**22 368 taga yetkazildi**).

65 nomda 49,2 ming nusxa maxsus fanlardan yangi o'quv adabiyotlar nashr etilib, professional ta'lim muassasalariga yetkazildi.

YuNESKO, Helvetas, GIZ va DARYA loyihalari bo'yicha **109 nafar** professional ta'lim tizimi rahbarlari, xodimlari, pedagog kadrlari xorijiy davlatlarda malaka oshirib keldi.

353 ta kasblar **ta'lim dasturlari** takomillashtirildi va xorijiy loyihalar ko'magida **13 ta** kasblar bo'yicha modulli ta'lim dasturlari ishlab chiqildi.

29 ta tibbiyot texnikumlarida **761 nafar** o'quvchilar uchun nemis tili kurslari tashkil qilindi hamda Germaniyadan **4 nomda 6 ming nusxada** nemis tili kitobi sotib olindi.

Kamida **S1 darajadagi** sertifikati bor o'qituvchilar ish haqilariga **50 foiz** miqdorda **ustama haq to'lash yo'lga qo'yildi**.

Rossiyaning "**Kamaz**" kompaniyasi va Germaniyaning "**GP Günter Papenburg AG**" konserni bilan kadrlar tayyorlash bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yildi.

81 ta ta'lim muassasalarining **170 nafar** xorijiy tillar o'qituvchilari **87 nomda 4 132 nusxada** zamonaviy adabiyot, darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlandi.

Qo'shimcha kvalifikatsiyani egallash bo'yicha qisqa muddatli kurslarning **12 336 nafar** bitiruvchilariga **o'zbek, ingliz va rus tillaridagi sertifikat** berildi.

Germaniyaning "**German Sparkassenstiftung for International Cooperation**" tashkiloti bilan hamkorlikda **750 nafar** o'qituvchilar **Tadbirkorlik ko'nikmalari** bo'yicha o'qitildi.

Professional ta'lim muassasalarida **korxonalar va tashkilotlarning** buyurtmalari asosida **dual ta'lim** shaklida **yil davomida** o'qitish tizimi joriy etildi.

"Kollej va texnikumlarda o'qitish bo'yicha shartnomalarni elektron tarzda taqdim etish" axborot tizimi ishlab chiqildi (<https://prof.edu.uz/>);

v) Innovatsion faoliyat sohasida amalga oshirilgan ishlar

2024 yilga ajratilgan kvotalar jami **5 200 tani** tashkil etib, bu 2023 yilga ajratilgan kvotalarga nisbatan **1,08 baravarga** oshganligini ko'rish mumkin (**2023 yilga 4801 ta kvota ajratilgan**).

Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida qabul qilingan **395 taga yaqin** umumiy qiymati **112,97 mlrd** so'm bo'lgan **76 ta** tematik mavzular shakllantirilib, mazkur tematik mavzular bo'yicha **10 ta** innovatsion loyihalar tanlovlari e'lon qilindi.

Joriy yilda **118 ta** ilmiy tashkilotlar tomonidan so'rov asosida ularning ilmiy-innovatsion faoliyatiga oid **27 ta** yo'nalish bo'yicha **75 ta** ko'rsatkichdan iborat rasmiy ma'lumotlari tahlil qilindi va uning natijalariga ko'ra ilmiy tashkilotlarning **2022 yildagi ilmiy-innovatsion faoliyati natijalari bo'yicha milliy reytingi** ishlab chiqildi va e'lon qilindi.

486 ta jami **275,1 mlrd.** so'mlik ishlanmalar tijoratlashtirildi.

Ma'lumot uchun: 2023 yilda **175,48 mlrd.** so'm mahsulot ishlab chiqarildi, **106,5 mlrd.** so'mlik mahsulot sotildi hamda **99,64 mlrd.** so'mlik xizmatlar ko'rsatildi.

"Tijoratlashtiriladigan loyihalarni amalga oshirish" Bahorgi Forumi o'tkazildi.

Ma'lumot uchun: Forum doirasida **21,2 mlrd so'mlik 72 ta** loyiha yuzasidan shartnomalar imzolandi. Shuningdek, **22,87 mlrd so'mlik 83 ta** mahalliy korxonalar hamda **1,6 mln dollarga teng 4 ta** eksport shartnomalar imzolandi.

"InnoWeek.Uz-2023" xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligi doirasida Tijoratlashtirish kuzgi forumi o'tkazildi.

Ma'lumot uchun: **60 dan ortiq** mahalliy tashkilotlarning **65 ga yaqin** innovatsion mahsulotlari namunalari namoyish etilib, unga **1000 nafar** mahalliy va **150 dan ortiq** xorijiy mehmonlar tashrif buyurdi. Forum doirasida **36,5 mlrd. so'm** miqdoridagi **53 ta** oldi-sotdi va **4 mln. dollar** miqdoridagi **5 ta** eksport shartnomalar imzolandi.

17 ta ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishga **ixtisoslashgan yangi innovatsion (spin-off) korxonalar** tashkil etilib, **21,4 foiz** o'sishga erishildi.

Ma'lumot uchun: Mazkur **17 ta spin-off korxonalar** tomonidan **92 turdagi** yangi mahsulot hamda **68 xil** xizmat ko'rsatish faoliyati tashkil etilgan. Shu bilan birga, Mazkur **17 ta spin-off korxonalar** tomonidan **300 dan ortiq** ish o'rinlari yaratilgan. Bundan tashqari, umumiy hisobda **8,1 mlrd so'mlik** mahsulotlar sotilgan va xizmat ko'rsatish amalga oshirilgan.

Iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan jami **441 ta** loyihadan **378 tasida** ishlar boshlanib, **3,9 trln so'm** o'zlashtiril. **25 ta** tarmoqda **209 ta** loyiha bo'yicha ishlar to'liq yakunlandi.

Hududlarda **11 ta** innovatsion faoliyat infratuzilma sub'ektlari tashkil etilib, **10 foiz** o'sishga erishildi hamda bugungi kunda ularning umumiy soni **47 taga** yetkazildi.

Yoshlar texnoparklariga **10298 nafar** yoshlar jalb etilib, **274,5 foiz** o'sishi ta'minlandi.

Tanlovlar doirasida **54 ta** startap va **50 ta** tijoratlashtirish loyihalar moliyalashtirilib, ushbu loyihalar doirasida **71 ta** yangi innovatsion korxonalar tashkil etildi hamda **9,2 foiz** o'sishga erishildi.

19,5 mln dollar (108 foiz) miqdorida xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi.

8,3 mln dollar mablag'lar tashqi beg'araz ko'mak loyihalari doirasida o'zlashtirildi.

69 ta muassasalarda faoliyat yurituvchi **234 nafar** yosh olimlar **27 ta** xorijiy davlatlardagi **89 ta** nufuzli ilmiy-tadqiqot muassasalariga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborildi.

12 ta ilmiy tadqiqot institutlari **143 turdagi** zamonaviy ilmiy laboratoriya asbob-uskunalar bilan jihozlash maqsadida **67,92 mlrd so'm** miqdorida moliyalashtirildi.

"Innoprom. Markaziy Osiyo" xalqaro sanoat ko'rgazmasida umumiy qiymati **14,9 mln dollar** bo'lgan jami **57 ta** kelishuvlarga erishildi.

43,4 mln AQSh dollarlik **9 ta** loyihalar tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari hisobidan amalga oshirilmoqda.

"Kreativ ta'lim va innovatsiyalar – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosi" shiori ostida **"InnoWeek.Uz-2023"** xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligi tashkil etildi.

Haftalik doirasida **99,3 mln dollar** miqdorida **23 ta** investitsion va grant shartnomalari, **66,1 mlrd so'mlik 123 ta** oldi-sotdi shartnomalar hamda **18,38 mln dollar** miqdoridagi **13 ta** eksport shartnomalar imzolandi.

davlat ilmiy dasturlari doirasida umumiy qiymati **1 024,82 mlrd so'mlik 621 ta** (**320 ta amaliy, 70 ta innovatsion, 90 ta fundamental, 141 ta xalqaro qo'shma**) loyihalarning **bajarilishi ta'minlandi**.

Umumiy qiymati **67,3 mlrd so'mlik 88 ta** yakunlangan ilmiy loyihalar **tijoratlashtirishga yo'naltirildi;**

153,88 mlrd so'mlik 141 ta xalqaro qo'shma ilmiy loyihalarning amalga oshirilishi muvofiqlashtirildi.

1 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda **2 ta** Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi ishlab chiqildi.

Oliy ta'lim muassasalari ilmiy salohiyati **41 foizga** yetkazildi.

doktoranturaga davlat budjeti hisobidan ajratiluvchi kvotalar sonini **4307 taga** yetkazildi.

Qo'shimcha loyihalar doirasida **1,9 mln** AQSh dollar qo'shimcha xorijiy investitsiya o'zlashtirildi.

Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan umumiy qiymati **43,4 mln** AQSh dollarlik **9 ta** loyihalar tashqi beg'araz ko'mak mablag'lari hisobidan amalga oshirilmoqda.

Agentlik tomonidan yosh olimlarni yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish xarajatlari uchun 2023 yilda **16,0 mlrd**

so'm nazarda tutilgan bo'lib, ushbu mablag'lar hisobidan **250 nafar** yosh olimni stajirovka xarajatlarini moliyalashtirish rejalashtirilgan.

Ilmiy tadqiqot institutlarni **162 turdagi** zamonaviy ilmiy laboratoriya asbob-uskunalar bilan jihozlash maqsadida **70,27 mlrd** so'm miqdorida moliyalashtirildi (o'sish **20 foiz**).

g) Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar attestatsiyasi tizimida amalga oshirilgan ishlar

3348 nafar tadqiqotchi **ilmiy darajaga ega bo'ldi** (falsafa doktori (PhD) **2887 nafar**, fan doktori (DSc) **461 nafar**).

2289 nafar talabgor ilmiy unvon oldi: **444 nafari** professor, **1675 nafari** dotsent va **170 nafari** katta ilmiy xodim.

30 ta ilmiy kengash tuzilib, jami ilmiy kengashlar soni XXXX ga yetdi.

74 ta ilmiy darajalar **diplomlari nostrifikatsiya qilindi** (**22 tasi** fan doktori, **52 tasi** falsafa doktori).

d) Bilim va malakalarni baholash sohasida amalga oshirilgan ishlar

72 ta katta sig'imli bino tayyorlanib, **13 kun** davomida ikki smenada **76 440 nafar** abituriyent test sinovlaridan o'tkazildi.

Test sinovlariga **72 nafar** bino rahbari, **2 936 nafar** guruh nazoratchisi, **125 nafar surdotarjimon** jalb etildi.

Test sinovlarida **948 486 nafar** abituriyentdan **887 867 nafari** yoki **93,6 foizi** qatnashdi. **60 619 nafar** yoki **6,4 foiz** abituriyent test sinoviga kelmadi. **67 nafar** abituriyent hududga kirishda, **81 nafar** abituriyent imtixon jarayonida test sinovlari tartib-qoidalarini buzganligi sababli chetlatildi.

Xorijda ta'lim olganlik haqidagi **4 323 ta** ta'lim hujjati ko'rib chiqilib, **1 660 tasi** tan olindi.

Apostil qo'yish uchun kelib tushgan **19 646 ta** hujjatdan **18 745 tasiga** ijobiy hal etilib, **901 tasi** rad etildi.

Professional ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun **61 ta ob'ektda** kunlik ikki smenada **132 695 nafar** abituriyent uchun test sinovlari tashkil etildi.

9 ta umumta'lim fanlaridan **41,7 ming nafar** talabgor test sinovlaridan o'tkazilib, **17 ming nafariga** milliy sertifikat berildi.

Mas'ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarning davlat tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha **1 425 nafar** talabgor test sinovidan o'tkazildi va **529 nafariga** sertifikat taqdim etildi.

16 ta chet tilidan **4 ta** ko'nikma bo'yicha **151,8 ming nafar** talabuorning chet tilini bilish darajasi baholandi. Bu **2022 yil (56,7 ming nafar)ga nisbatan 95,1 ming nafarga** yoki **uch barobarga yaqin** oshganini ko'rsatmoqda.

akademik litseylarning **4,8 ming nafar** bitiruvchisi, xorijiy tillar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashga ixtisoslashgan **8 ta** oliy ta'lim muassasasiga hujjat topshirgan **12,3 mingga** yaqin abituriyentning chet tilini bilish darajasi aniqlandi.

89,2 ming nafar talabgorga chet tilini bilish darajasi bo'yicha milliy sertifikat taqdim etildi.